FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR SHAKLLANISHIDA LEKSIK KOMPONENTLARNING O‘RNI: SOMATIK IBORALARNING QIYOSIY TADQIQI

Nazarova Ziyoda Kattayevna
Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada leksik va frazeologik birliklarning o‘zaro munosabati, ularning semantik, strukturaviy va funksional xususiyatlari tadqiq etiladi. Leksik birliklarning, xususan, leksemalarning frazeologik birliklar shakllanishidagi o‘rni hamda frazeologizmlarda komponentlarning lug‘aviy ma’nosi qayta shakllanib, yaxlit frazeologik ma’no hosil qilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, frazeologik birliklarning turg‘unligi, takrorlanuvchanligi, semantik yaxlitligi, idiomatikligi, obrazliligi va nutqda tayyor holda qo‘llanishi kabi asosiy belgilari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *leksik birlik, leksema, leksik ma’no, frazeologik birlik, frazeologizm, frazema, frazeologik ma’no, semantik yaxlitlik, turg‘unlik, takrorlanuvchanlik, idiomatiklik, somatik komponent, obrazlilik, ingliz tili, o‘zbek tili, qiyosiy tahlil.*

Abstract: This article examines the relationship between lexical and phraseological units and analyzes their semantic, structural, and functional characteristics. Particular attention is paid to the role of lexical units, especially lexemes, in the formation of phraseological units and to the semantic transformation of individual components into an integral phraseological meaning. The study also discusses the major characteristics of phraseological units, including stability, reproducibility, semantic integrity, idiomaticity, figurativeness, and their ready-made use in speech.

Keywords: *lexical unit, lexeme, lexical meaning, phraseological unit, phraseologism, phraseme, phraseological meaning, semantic integrity, stability,*

reproducibility, idiomaticity, somatic component, figurativeness, English language, Uzbek language, comparative analysis.

Har bir til vakillarining leksikoni, lug‘at sostavini boyitishda o‘zining qadimiy tarixi va madaniyati bilan chambarchas bog‘liq holda turli xalqlar o‘ziga xos til birliklariga ega bo‘ladi.

“Leksikologiya tilning lug‘aviy tarkibini, frazeologiya esa uning iboraviy ko‘rinishlarini o‘rganadi. Lug‘at tarkibida asosiy til birligi so‘z bo‘lsa, frazeologiya fanining asosiy o‘rganish obyekti frazeologizm – barqaror iboraviy birlik hisoblanadi[1]. Ya’ni, frazeologik birliklarning tarkibida mavjud leksemalar o‘zining lug‘aviy ma’nosini yo‘qotib, yangi frazeologik ma’no kasb etadi. Shu bois, leksik birliklar frazeologik birliklarning shakllanishi uchun asosiy manba vazifasini bajaradi, frazeologik birliklar esa leksik qatlamning semantik rivojlanish bosqichini ifodalaydi. Leksik va frazeologik birliklarning o‘zaro munosabatini tadqiq etish til tizimining ichki qonuniyatlarini, ayniqsa, ma’no hosil bo‘lish jarayonlarini yoritishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Masalan, har bir so‘z o‘zining ma’lum ma’nosini anglatadi: *“head” – bosh, “eye” – ko‘z, “shoulder” – yelka, “hand” – qo‘l* kabi.

N.Mahkamov, I.Ermatovlarning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da “*so‘z*” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “So‘z o‘z tovush qobig‘iga ega bo‘lgan, mavjudlikdagi ma’lum bir narsa, belgi-xususiyat yoki harakat-holatlarni ifodalovchi, atash ma’nosiga ega bo‘lgan va turli grammatik ma’no hamda vazifalarda ishlatiladigan til birligidir”[2]. Qolaversa, “leksik ma’no” atamasi so‘zning mazmunini anglatadi, ya’ni so‘z ifoda etgan, etayotgan narsaning inson ongidagi aksidir. Bu predmetlar, harakatlar yoki belgilar haqidagi tushuncha hisoblanadi. So‘zning asosiy leksik ma’nosi uning o‘zagida barcha o‘xshash so‘zlarning umumiy qismida mavjud bo‘ladi”[3]. “Lison – tilning kishi miyasidagi til xotirasi markazida mavjud birliklardan va ulardan foydalanish qoidalaridan iborat

[1]Shoabdurahmonov Sh., va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent: O‘qituvchi, 1980. –B. 446
[2] Mahkamov N , I.Ermatov Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. –Toshkent: Fan, 2013. – B. 144
[3] Mamatov A. Б.”Zumonaviy lingvistika”: o‘quv qo‘llanma –Tashkent: “ Noshir” nashriyoti, 2019. –B.118

boylik”[4]. Bu esa faqatgina tushuncha ifodalovchi so‘zlar leksik ma’noga ega bo‘lishidan darak beradi. Shuning uchun ham leksik ma’no so‘zning semantik tuzilmasini tashkil etadi va u til birliklarining ma’no tizimini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi.

Lug‘at boyligining ikkinchi qatlamini tashkil etuvchi, bu xildagi til birligi haqida Sh.Rahmatullayevning “Nihoyat, o‘ziga xos belgi-xususiyatlari bilan ajralib turuvchi yana bir til birligi mavjud bo‘lib, “frazeologik birlik”, “frazeologizm” kabi terminlar bilan nomlangan; bu til birligini “frazema” deb nomlash ma’qul. Frazemaning mazmun jihati ham o‘ziga xos tarzda voqe bo‘ladi va ular frazeologik qatlamni tashkil qiladi. Umuman, frazemani o‘rganish til o‘rganishning eng yuqori, murakkab pog‘onasi hisoblanadi, chunki frazemaning mohiyatini anglash uchun til qurilishining boshqa barcha birliklari haqida ma’lumotga ega bo‘lish zarur”[5] degan fikrini keltirish maqsadga muvofiq.

“Frazema til qurilishining lug‘at bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birlik bo‘lib, bittadan ortiq leksemaning o‘zaro semantik – sintaktik birlashuvi bilan tarkib topgan bo‘ladi. Frazeologizm va leksema bir narsa yoki hodisani atasada, ya’ni atash semalari bir xil bo‘lsa-da, ifoda bo‘yoqlari bilan keskin farqlanib turadi. Frazeolgizmning ko‘pincha, ifoda semalarida obrazlilik, bo‘yoqdorlik bo‘rtib turadi”[6]. Nutq jarayonida fikrimizni ifodalash uchun biz nafaqat so‘zlardan, balki ana shu frazeologik birliklardan ham foydalanamiz. Ushbu birliklar nutqimizni nafaqat tasvirlab qolmay, balki uning ma’nosi va mazmunini boyitib, lo‘nda va ifodali tarzda taqdim etishga xizmat qiladi.

V.V.Vinogradov tilshunoslikka “frazeologik birlik” atamasini kiritgan birinchi olim hisoblanadi. Ushbu termin zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda frazeologiya doirasiga kiruvchi turli xil leksik birliklarni umumiy tarzda ifodalovchi atama sifatida keng qo‘llanilib, ularning semantik va strukturaviy xususiyatlarini tahlil qilishda muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Frazeologik

[4] Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари: қўлланма. – Тошкент: Университет нашриёти, 2002. – Б. 29

[5] Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари: қўлланма. – Тошкент: Университет нашриёти, 2002. – Б. 29

[6] Nurmuhammedov Y. Frazeologiyaning dolzarb masalalari. – Samarqand: “SamDCHTI, 2022. – B.92

birliklar tushunchasiga berilgan quyidagi izohlarga to‘xtalsak ham ushbu fikrning asosli ekanligini ko‘ramiz.

1) “Frazeologik birliklar u yoki bu xalqning ma’naviy qadriyatlari, milliy tafakkuri, hayot tarzi hamda urf-odatlarini namoyon etadigan til hodisasidir”[7];

2) “Ma’nosi, odatda, bir so‘zga teng keladigan so’zlar qo’shilmasi yoki gaplar: oq ko‘ngil, kapalagi uchib ketdi, ko’nglidan o’tkazdi; turg‘un bog’lanma”[8];

3) “Frazema mustaqil turkumlarga mansub ikki va undan ortiq leksema asosida tarkib topgan lug‘aviy birlik bo‘lib, asosan nominativ ma’no anglatadi, shunga ko‘ra, leksema bilan bir qatorga qo‘yiladi, leksemadan yirik nominativ birlik deb yuritiladi”[9];

4) “To‘liq yoki qisman qayta shakllangan ma’noga ega bo‘lgan alohida til birliklari”[10]. “Ibora tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmasiga o‘xshab ketsa ham, nutq birligi sanalgan bunday birliklardan tamoman farq qiladi. U so‘z birikmasi kabi har gal nutqning o‘zidagina yuzaga kelmaydi. Til birligi sifatida nutqqacha tayyor holda mavjud bo‘ladi. Shunga ko‘ra iboralarni tilshunoslikda turg‘un so‘z birikmasi deb ham yuritiladi”[11]. “Frazeologizmlar nutqda aniq bir butunlik sifatida ishlatiladi, parchalanmaydi, qismlarni qayta joylashtirishga yo’l qo’ymaydi”[12]

Bundan shuni anglash mumkinki, frazeologizm tushunchasi qamrovi keng va talqini xilma-xil. Frazeologizmlarning shakllanishi, rivojlanishi va qo‘llanilish doirasi turli omillarga bog‘liq bo‘lib, ular leksik-semantik tizim doirasida alohida izchil o‘rganishni talab qiladi. Frazeologizmlar, turg‘un bog‘lanmaga ega bo‘lgan so‘z uyushmalaridir, nominativ ma’noga ega bo‘lib, odatda, bir so‘z o‘rnida ishlatiladi, tarkibidagi so‘zlarning ma’nosi qisman yoki butunlay o‘zgarganligi oddiy so‘zlarga nisbatan struktural jihatdan murakkabroq hisoblanadi.

---

[7] Маматов А. Э. Ўзбек тили фразеологияси . –Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 260

[8] Турсунов У.va boshqalar. *Ҳозирги ўзбек адабий тили.* – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 400

[9] Маматов А. Э. Ўзбек тили фразеологияси . –Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 260

[10] Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка: учеб. пособие для ин-тов и фак. иностранных языков – Дубна: Феникс, 2005. – С.488

[11] Ўзбек тили практикуми1- қисм (фонетика. лексикология. фразеология. морфемика. сўз ясалиши) Тошкент 2005.– Б. 96

[12] Ahmedov, H.Y. “Alpomish” dostonida frazeologizmlarning tematik va mifologik strukturasi Monografiya Toshkent: Grand kondor print, 2024. – B. 184

Bizningcha, frazeologizmlarni aniqroq tavsiflash uchun bu ta’riflardan bir-birini to‘ldiruvchi yondashuvlar sifatida foydalanish o‘rinlidir. Masalan: “crack good, great hand at (with) smth”[13], frazemasining ma’nosi (*o‘z ishini juda mohirlik bilan va chiroyli bajaradigan*) leksemasining ma’nosiga “qo‘li gul”[14] frazemasining ma’nosi *(o‘z ishini mohirlik bilan bajaradigan)* leksemasining ma’nosiga teng *)* kabi. Ko‘rinadiki, frazeologiya frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan so‘z birikmalaridan farqlaydi va ularning belgilarini aniqlaydi.

Tadqiqotlardan bizga ma’lumki, Akademik V.V.Vinogradov frazeologizmlarning uch tipini aniqlab, ularni *frazeologik chatishma,(yoki idioma), frazeologik butunlik* va *frazeologik qo‘shilma* kabi turlarga ajratgan[15]. *Ingliz tadqoqodchisi M.Makkarti* (McCarthy) frazeologik birliklarni ma’nosining ochiqlik darajasiga ko‘ra tahlil qilib, V.V.Vinogradov tomonidan frazeologik chatishma sifatida ajratilgan idiomalarni quyidagi turlarga bo‘ladi: “Opaque idioms, semi-opaque idioms, transparent idioms”[16].

Opaque idioms – tushunarsiz, noaniq idiomalar, ya’ni ularning umumiy ma’nosi tarkibiy qismlarining lug‘aviy ma’nosidan mutlaqo kelib chiqmaydi (*to pull the wool over someone’s eyes*” – *aldamoq*); semi-opaque idioms – yarim tushunarsiz, yarim shaffof idiomalar, bunda umumiy ma’noning ayrim jihatlari komponentlar ma’nosi bilan qisman bog‘liq (*to keep an eye on ko‘z – quloq bo‘lmoq*”); transparent idioms – shaffof idiomalar, ya’ni ma’nosi komponentlar orqali oson anglashiladigan frazeologik birliklar (*to shake one’s head – bosh chayqamoq*) kabi. Shunday qilib, frazeologizmlarning turlarini farqlash zarurati yuzaga keladi.

O‘zbek tilidagi mavjud lingvistik adabiyotlarda frazeologizmlarning eng asosiy belgilari sifatida quyidagilar ko‘rsatib o‘tilgan.

---

[13] Кунин, А. В. Англо-русский фразеологический словарь / А. В. Кунин. – М.: Русский язык, 1984. – 944 с.

[14] Раҳматуллаев, Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати / Ш. Раҳматуллаев. – Тошкент : Ўқитувчи, 1978. – 407 б.

[15] Виноградов, В. В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке / В. В. Виноградов // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва : Наука, 1977. – С. 161.

[16] McCarthy, M. Vocabulary / M. McCarthy. – Oxford : Oxford University Press, 1990. – P. 173.

1. Frazemaning tarkibida ikki yoki undan ortiq leksema qatnashgan bo‘ladi;

2. Frazema yaxlit bir lug‘aviy ma’noni ifodalaydi;

3. Frazemaning tarkibidagi so‘zlar o‘z leksik ma’nolarini yo‘qotgan bo‘ldi;

4. Frazema turg‘un birikma sifatida erkin birikma bilan faqat omonimik (so‘zma-so‘z bir xil ko‘rinishdagi, lekin ma’nosi boshqacha) holatda bo‘ladi;[17].

Ingliz frazeologiyasining leksikografik yo‘nalishiga asos solgan va uning nazariy asoslarini rivojlantirgan yetakchi leksikolog A.Kovi frazeologik birliklarning asosiy xususiyatlarini quyidagicha ta’riflaydi: “reproducibility– takrorlanuvchanlik; syntactic and semantic stability – sintaktik va semantik barqarorlik; idiomaticity – idiomatiklik; connotations – konnotativ ma’no; expressive, emphatic, or intensifying functions in a text – matnda ekspressiv, ta’kidlovchi yoki kuchaytiruvchi funksiyalar”[18].

“Frazeologizmlarda so‘z o‘zining birlamchi ma’nosini saqlab qoladi, lekin bir grammatik kategoriyadan ikkinchisiga o‘tib, asl shaklini yo‘qotadi”[19]. Shuningdek, olim A.E.Mamatov “So‘z va frazeologizm o‘rtasidagi muhim farqli belgilar ularning semantikasida namoyon bo‘ladi” degan fikrni keltiradi va uni quyidagicha izohlaydi: “So‘zlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri, nominativ, predmetni atab kelsa, frazeologizmlar obrazli-nominativ ma’no anglatadi. Shu jihatlari bilan bu til birliklarining aloqa-aralashuv, kommunikativ vazifalari belgilanadi. So‘z asosan voqea-hodisa, predmetlarni ifodalaydi, frazeologizmlar esa ko‘proq tasvirlaydi”[20].

Frazeologizmlar ham xuddi so‘zlar kabi shakl va ma’no birligiga ega. So‘zning shakliy tomonini tovushlar hosil qilsa, frazeologizmlarning shakliy

---

[17] Ўзбек тили практикуми. 1-қисм: Фонетика. Лексикология. Фразеология. Морфемика. Сўз ясалиши. – Тошкент, 2005. – Б. 96

[18] Cowie, A. P. Phraseology: Theory, analysis, and applications. Oxford University Press, 1998. – 258 p;
Cowie, A. P. (ed.). *Phraseology: Theory, Analysis, and Applications*. – Oxford : Oxford University Press, 1998. – P. 130.

[19] Мокиенко В. М.М74В глубь поговорки: Рассказы о происхождении крылатых слов и образных выражений. – 3-е изд., перераб. СПб.: Азбука-классика, 2005. – С. 256

[20] Маматов А. Э. Ўзбек тили фразеологияси . –Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 260

tomonini so‘zlar qo‘shilmasi tashkil etiladi. Frazeologizmlar va so‘zlar sintaktik vazifasiga ko‘ra umumiylikka ega.

Keltirilgan ma’lumotlardan ayon bo‘ladiki, frazeologik birliklar nutqda tayyor holda qo‘llanuvchi birlik hisoblansa-da, leksik birliklar o‘zgacha shakllanish xususiyatlarga ega. Har ikkala ingliz va o‘zbek tillarida farqli holatda shakllantiriluvchi frazeologik birliklarni ham uchratishimiz mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “go about with one’s head in the air” (*state of being arrogant, haughty, appearing to ignore others or be unaware of their surroundings – mag‘rur, kekkayib yurish*) iborasini shakllantirishda head (*bosh*) leksemasiga murojaat qilingan bo‘lsa, o‘zbek tilida bu mazmunni ifodalashda burun leksemasidan foydalanilgan, “burni ko‘tarilmoq”, “burni osmonda” kabi. Har ikkala til biror tana a’zosining (bosh yoki burun) baland turishini mag‘rurlik ramzi sifatida ishlatgan. Bu esa bugungi kun tilshunoslardan ushbu sohani yanada chuqur tadqiq etilishini talab qiladi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar leksik va frazeologik birliklar tilning lug‘aviy tizimida o‘zaro uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. So‘zlar frazeologizmlar uchun asosiy manba bo‘lsa, frazeologik birliklar ularga obrazlilik, ekspressivlik va konnotativ mazmun bag‘ishlaydi. Turg‘unlik, semantik yaxlitlik va nutqda tayyor holda qo‘llanish kabi belgilar frazeologizmlarni erkin so‘z birikmalaridan ajratib turadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi somatik iboralarni qiyoslasak, bir xil konseptual mazmun turli tana a’zolari orqali ifodalanishi mumkin (masalan, inglizcha *go about with one’s head in the air* – o‘zbekcha *burni ko‘tarilmoq*). Bu holat tillardagi milliy-madaniy tajriba va obrazli tafakkur farqlarini ko‘rsatadi. Frazeologizmlarni alohida komponentlar emas, balki yaxlit birlik sifatida talqin qilish tarjima va semantik tahlilda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Umuman olganda, somatik iboralarni qiyosiy, semantik va lingvomadaniy yo‘nalishda tadqiq etish frazeologiya hamda qiyosiy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Shoabdurahmonov Sh., va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent: O‘qituvchi, 1980. –B. 446

2. Mahkamov N , I.Ermatov Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. –Toshkent: Fan, 2013. – B. 144

3.Mamatov A. Б.”Zumonaviy lingvistika”: o‘quv qo‘llanma –Tashkent: “ Noshir” nashriyoti, 2019. –B.118

4.Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари: қўлланма. – Тошкент: Университет нашриёти, 2002. – Б. 29

5.Маматов А. Э. Ўзбек тили фразеологияси . –Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 260

Турсунов У.va boshqalar. *Ҳозирги ўзбек адабий тили.* – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 400

6.Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка: учеб. пособие для ин-тов и фак. иностранных языков – Дубна: Феникс, 2005. – С.488

7. Ўзбек тили практикуми1- қисм (фонетика. лексикология. фразеология. морфемика. сўз ясалиши) Тошкент 2005.– Б. 96

8.Кунин, А. В. Англо-русский фразеологический словарь / А. В. Кунин. – М.: Русский язык, 1984. – 944 с.

9.Раҳматуллаев, Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати / Ш. Раҳматуллаев. – Тошкент : Ўқитувчи, 1978. – 407 б.

10.Ўзбек тили практикуми. 1-қисм: Фонетика. Лексикология. Фразеология. Морфемика. Сўз ясалиши. – Тошкент, 2005. – Б. 96

11. Cowie, A. P. Phraseology: Theory, analysis, and applications. Oxford University Press, 1998. – 258 p;